

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**BAYMURATOVA XOSIYAT ATABAYEVNA**

**MUNIS VA OGHIYNING “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARI  
ONOMASTIKASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Ilmiy rahbar: A.I.Primov,  
filologiya fanlari doktori, professor**

**Urganch – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Philological sciences**

**Baymuratova Xosiyat Atabayevna**

Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asari onomastikasi .....3

**Баймуратова Хосият Атабаевна**

Ономастика произведения Муниса и Агахи «Фирдавс уль-икбал».....25

**Baymuratova Khosiyat Atabayevna**

Onomastics of Munis and Agahi's work "Firdavs ul-iqbal" .....50

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works .....54**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**BAYMURATOVA XOSIYAT ATABAYEVNA**

**MUNIS VA OGAGHIYNING “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARI  
ONOMASTIKASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Ilmiy rahbar: A.I.Primov,  
filologiya fanlari doktori, professor**

**Urganch – 2025**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4027 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Primov Azamat Iskandarovich,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Kurboniyozov Gulmirza Allamberganovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Maxmudov Raufjon Baxodirovich  
filologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:** Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 Ilmiy kengashning 2025-yil "11" sentabr soat 09 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: [fil-ik.@urdu.uz](mailto:fil-ik.@urdu.uz))

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-833 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00). e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "13" avgust da tarqatildi.  
(2025-yil "13" avgust dagi 56 raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.Q.G'ayipov**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
Filologiya fanlari doktori, professor,

**S.S.Atajonov**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
Korbet, filol.f.f.d. (PhD),

**A.D.O'razboyev**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d. professor

## **KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligi tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir tilda ajdodlar qoldirgan ilmiy-adabiy meros bo'lgan yodgorliklarni o'rganish, xususan, tarixiy asarlar onomastikasi yuzasidan tadqiqotlar olib borish, shu bilan bir qatorda, asar mazmunini kelajak avlodga yetkazish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda asrlarning ruhini o'zida singdirgan til taraqqiyotining turli bosqichlarida yaratilgan, olis va yaqin tarixdan ovozsiz guvohlik beruvchi yozma yodgorliklar atoqli otlar fondini o'rganish asosida umumiy va farqli tomonlarini aniqlash tilshunoslik fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Dunyo tilshunosligi tarixida katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan, o'zida tarixiy sharqona ruh ifodlaydigan asarlarni lingvistik jihatdan o'rganish, mumtoz muarrixlar izlanishlari asosida yuzaga kelgan manbalarning lingvistik xususiyatlarini ochib berish ishlari tobora keng tus olmoqda. O'zbek xalqiga boqiy meros bo'lib qolgan asarlarning har tomonlama o'rganish, buyuk ajdodlarimiz mehnatini munosib baholash zarurati milliy tilshunosligimizda ham kun tartibiga chiqdi. Sharq uslubini, tarixiy asarlar yaratish an'anasini samarali davom ettirgan shoir, tarjimon, muarrixlarning asarlari onomastik tizimini tahlilga tortish, tasniflash, lingvistik jihatdan asarlar matnini ilmiy iste'molga olib kirish, tilimiz tarixiy leksikologiyasining o'ziga xos jihatlari borasidagi bilimlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida ma'naviyatimizning ajralmas qismi hisoblangan o'zbek tili tarixini o'rganish, tarixiy manbalarni lisoniy jihatdan, xususan, onomastik jihatdan tadqiq etishda bir qator ishlar qilinmoqda. Jumladan, iste'dodli shoir, buyuk muarrix, mohir tarjimon, Xorazm adabiy muhitining yorqin vakili Muhammad Rizo Ogahiy ijodiy merosini tilshunoslik nuqtayi nazaridan ogahiyshunoslar tomonidan chuqur tadqiq etishga kirishilmoqda. Shermuhammad Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asari yuqorida ta'kidlangan ma'naviy xazinaning o'ziga xos gavhari hisoblanib, asardagi umumbashariy g'oyalar hozirgi avlod tarbiyasida, ma'naviy qarashlarning shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, asarni filologik nuqtayi nazardan o'rganish o'zbek tilshunosligini yangi ilmiy ma'lumot va natijalar bilan boyitadi. Munis va Ogahiy asarlarining lingvistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning keng miqyosda olib borilayotganini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, tilshunoslikda hozirgacha Ogahiy tarixiy asarlari onomastikasi monografik tarzda to'liq o'rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan mazkur mavzuning tadqiq qilinishi nihoyatda dolzarb ekanligi oydinlashadi. Asarni joriy imlodagi nashr qilinganligi va asarda katta hajmdagi atoqli otlarning aniqlanganligi ushbu ilmiy tadqiqotni amalga oshirish zaruratini belgilaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mazmun-mohiyati o'zbek tili atoqli otlar tizimini zamon talablari nuqtayi nazaridan ilmiy o'rganishni yanada kengaytirishga asos

bo‘lmoqda<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Onomastik birliklarni to‘plash va tadqiq etish borasida doktorlik, nomzodlik, falsafa doktorligi ishlari, ko‘plab monografiyalar yuzaga kelgan. O‘zbek onomastikasining fan sifatida shakllanishida E.Begmatov<sup>2</sup>, Z.Do‘simov<sup>3</sup>, T.Nafasov<sup>4</sup>, S.Qorayev<sup>5</sup>, N.Oxunov<sup>6</sup>, N.Uluqov<sup>7</sup>, N.Husanov<sup>8</sup>, Sh.Yoqubov<sup>9</sup>, H.Sattorov, M.Turdibekov<sup>10</sup>, Y.Xo‘jamberdiyev, T.Ernazarov, M.Tillayeva<sup>11</sup>, D.Yuldashev<sup>12</sup>, F.Rajabovlar<sup>13</sup>, O.Begimov, S.Rahimov<sup>14</sup>, R.Xudoyberganov<sup>15</sup>, A.Primov<sup>16</sup>, Q.Olloyorov<sup>17</sup>, H.Norimov<sup>18</sup>, O‘.Rajabov<sup>19</sup>larning xizmatlari katta. Shuningdek, bu borada

<sup>1</sup> “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4561730>

<sup>2</sup> Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1965. – 27 б.

<sup>3</sup> Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.

<sup>4</sup> Нафасов Т. Ўзбек номномаси. – Қарши: Насаф, 1993. – 242 б.; Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – 430 б.

<sup>5</sup> Қораев С. Топонимика. – Тошкент, 2006. – 36 б.

<sup>6</sup> Охунов Н. Идеонимлар ва уларни ўрганиш билан боғлиқ муаммолар. // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). III чикиши. – Тошкент: ЎЗМУ, 2006. – Б.79-82.

<sup>7</sup> Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.

<sup>8</sup> Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Фил. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2014. – 230 б.; Shu muallif. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2014. – 145 б

<sup>9</sup> Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 23 б.

<sup>10</sup> Турдибеков М. “Шажараи турк” ономастикаси. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 103 б.

<sup>11</sup> Тиллаева М. Хоразм ономастикасининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 23 б.

<sup>12</sup> Юлдасhev Д. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Sharq ma’rifati, 2020. – 206 б.

<sup>13</sup> Ражабов Ф. Захириддин Муҳаммад Бобур асарларидаги ономастик бирликларнинг лексик-семантик, лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2022. – 50 б.

<sup>14</sup> Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.

<sup>15</sup> Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – Б.26.

<sup>16</sup> Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 24 б.

<sup>17</sup> Оллоёров К. Хоразм дostonлари ономастикаси. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017. – 120 б.

<sup>18</sup> Наримов Х. Хоразм минтақавий фитонимларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. номз. дисс. – Урганч, 2009. – 152 б.

<sup>19</sup> Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 24 б.

Sh.Aqmanova<sup>20</sup>, X.Qodirova<sup>21</sup>, M.Axmedova<sup>22</sup>, L.Otajonova<sup>23</sup> kabi olimlarning tadqiqot va bir qator maqolalari ham o‘z o‘rniga ega. O‘zbek nomshunoslari o‘zbek tili onomastikasini o‘rganish bo‘yicha jiddiy ishlarni amalga oshirdilar. O‘zbek antroponimiyasi, toponimiyasi, kosmonimiyasi, fitonimiyasi, bibliionimiyasi kabi sohalar bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirildi.

O‘zbek tilshunosligida tarixiy asarlar onomastikasi, xususan, tarixiy atoqli otlar bo‘yicha olib borilgan ishlar ko‘lami unchalik ham katta ko‘lamda emas. Tarixiy asarlar atoqli otlarga boy, ammo ularning barcha ko‘rinishlari to‘liq o‘rganilmagan, ilmiy manbalarda u yoki bu tarzda tilga olinsa ham, maxsus tadqiqot ostiga olinmagan. Onomastik ko‘lamlarning aksariyati o‘zbek tilida yaxlit termin sifatida o‘z nomiga ega emas. Bu masalalarni tadqiq etish o‘zbek nomshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir<sup>24</sup>.

N.Husanov XV asr o‘zbek yozma adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasi<sup>25</sup> hamda bir qator maqolalari hozircha o‘zbek tarixiy antroponimiyasiga bag‘ishlangan monografik tadqiqot bo‘lib turibdi. N.Mo‘minovanning temuriylar davri antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlariga bag‘ishlangan dissertatsiyasi<sup>26</sup> mazkur doiradagi kam sonli ishlardan biri hisoblanadi.

Ogahiy asarlari til xususiyatlariga bag‘ishlangan ilk maqola S.Dolimov tomonidan e‘lon qilingan<sup>27</sup>. Ushbu maqolada olim Ogahiyning omonim va sinonim so‘zlardan foydalanishdagi poetik mahoratini o‘ziga xos tarzda ochib beradi. U.Tursunov va N.Rajabovlar ta’kidlaganidek, ushbu ish sof amaliy xarakterga ega<sup>28</sup>. Z.Do‘simovning “Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida” maqolasida esa mazkur asarning lisoniy o‘ziga xosliklari ko‘rsatib berilgan<sup>29</sup>. Olim “Zubdat ut-tavorix”, umuman, Ogahiyning barcha tarixiy asarlariga xos bo‘lgan leksik va sintaktik xususiyatlar haqida mulohaza yuritgan.

XVII–XIX asrlar eski o‘zbek tili morfologik xususiyatlarini tekshirgan A.Matg‘oziyev ko‘plab obyektlar qatori Munis va Ogahiy qalamiga mansub

<sup>20</sup> Aqmanova Sh. O‘zbek tili bibliionimlarining struktur va funksional-semantik tadqiqi: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Urganch, 2023. – 59 b.

<sup>21</sup> Qodirova X.M. Xorazm shevalaridagi laqablarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Urganch, 2023. – 52 b.

<sup>22</sup> Axmedova M.F. Ogahiyning “Riyozu-d-davla” asari onomastikasi: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Urganch, 2023. – 69 b.

<sup>23</sup> Otajonova L.O. Ogahiy tarixiy asarlari tarjimasida rutba va mansablarning ingliz tilida ifodalanish usullari. Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. – № 4. – B.185-188.

<sup>24</sup> Mirzaxmedova O. Abu Rayhon Beruniy asarlarida ayrim onomastik birliklar qo‘llanilishi. // O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021. – B.124.

<sup>25</sup> Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидagi антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2014. – 230 б.

<sup>26</sup> Мўминова Н. Темурийлар даври антропонимиясининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2021. – 46 б.

<sup>27</sup> Долимов С. Огаҳий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар. // Ўқитувчилар газетаси. 1957. – № 51.

<sup>28</sup> Турсунов У., Раджабов Н. Из истории омонимов в узбекском литературном языке. // Тюркская лексика и лексикография. – Москва: Наука, 1971. – С.45.

<sup>29</sup> Дўсимов З. Огаҳийнинг “Зубдатут-таворих” асарининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида. // Огаҳий абадияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б.37-41.

“Firdavs ul-iqbol”, Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohid ul-iqbol” kabi asarlarini mavjud qo‘lyozmalari yuzasidan tadqiqot olib borgan<sup>30</sup>.

H.Dadaboyev o‘zbek tili tarixiy harbiy terminlarini tadqiqi asnosida Ogahiy tarixiy asarlariga ko‘plab murojaat qilgan va *tatovul, qaroqchilamoq, chapovulchilamoq, nikomish, arg‘ishchi* kabi so‘zlarning faqat Ogahiy tarixiy asarlarida uchrashini ta’kidlaydi<sup>31</sup>. Olimning “Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida” nomli maqolasida Ogahiy tarixiy asarlari tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibida qadimgi turkiy til va eski turkiy til davridan faol qo‘llanib kelayotgan asl turkiycha istilohlar o‘z ifodasini topgani, bu so‘z-terminlar birlamchi ma’nosini deyarli aynan saqlab qolishga erishgani, ayni paytda VII–XIV asrlarda keng ishlatilgan tub turkiycha istilohlarning ma’lum qismi Ogahiy davri o‘zbek adabiy tili so‘z boyligidan chiqib ketgani, buning sababi esa ko‘p sonli o‘zlashmalar va yangidan yasalgan leksik birliklarning faollashuvi ekanligini to‘g‘ri ta’kidlaydi<sup>32</sup>.

Ogahiyning tarixiy asarlari nashriga ilova lug‘at tuzgan N.Norqulov xizmatlarini ham shoir, muarrif va tarjimon ijodkor asarlari tilida ijtimoiy-siyosiy leksikani o‘rganishga qo‘shilgan o‘ziga xos hissa sifatida baholash mumkin<sup>33</sup>. Unda Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan 400 ga yaqin so‘z izohlangan. Shoir tavalludining 200 yilligi arafasida Ogahiyning so‘nggi asari “Shohid ul-iqbol” nashrdan chiqdi<sup>34</sup>. Asarga ilova qilingan lug‘atda 500 dan ortiq so‘zning izohi berilgan.

Keyingi yillarda Ogahiy asarlari tilini monografik planda tadqiq qilish boshlandi. Bu esa ogahiyshunoslikning muhim bir yo‘nalishi rivojiga yo‘l ochib beradi. Jumladan, R.Yo‘ldoshevning bir necha maqolasi e‘lon qilingan<sup>35</sup>. Ogahiy tilini leksikologiyadan boshqa sathlar doirasida ham monografik o‘rganish bugungi kunda tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ogahiy asarlari yuzasidan keyingi davrda bajarilgan va bajarilayotgan yirik plandagi ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lami ham kengayib bormoqda<sup>36</sup>. Keyingi yillarda Ogahiy asarlari tili bo‘yicha monografik tadqiqotlar yuzaga kelishida A.O‘razboyev, R.Mahmudov, M.Axmedovalarning xizmatlari katta bo‘ldi<sup>37</sup>. Lekin

<sup>30</sup> Matгазиев А. Исследование по морфологии староузбекского языка (конец XVII – до семидесятых годов XIX в.): Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 41 с.

<sup>31</sup> Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 21 с.; Огаҳий тили билимдони. // Маърифат фидойиси. (Субутой Долимов таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан) – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.181-183.

<sup>32</sup> Дадабоев Х. Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида. // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) – № 3. – Тошкент, 2009. – Б.21-24.

<sup>33</sup> Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. V жилд. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б.202-210.

<sup>34</sup> Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-иқбол. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – 335 б.

<sup>35</sup> Йўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида соннинг қўлланилиши. // Илм сарчашмалари. – 2004. – №4.– Б.92-96.; Огаҳий поэзиясида омонимлар. // Мунаввар умр. – Урганч, 2005, – Б.84-85.; Огаҳий поэзиясида антонимлар. // Илм сарчашмалари. – 2005. – №1. – Б.52-55.; Огаҳий поэзиясида спортга алоқадор сўзлар. // Илм сарчашмалари. – №4. – 2004.; Огаҳий поэзиясида “ов” мазмун майдони. // Илм сарчашмалари. – 2005. – №4. – Б.78-82.; Огаҳий поэзиясида озик-овқат ва ичимликлар билан боғлиқ сўзлар. // Илм сарчашмалари. – 2006 – № 1. – Б.72-75

<sup>36</sup> Ғайипов Д.Қ. Огаҳийнинг бадиий маҳорати: Филол. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б.58; Ismailov I. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari poetikasi. – Toshkent, 2023 – Б.62.

<sup>37</sup> Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг “Риёз уд-давла” асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ...дисс. –

Ogahiy asarlari onomastik ko‘lamiga oid tadqiqotlar ko‘lami hali katta emas<sup>38</sup>. Bu borada A.Primov, X.Qodirovalar tomonidan e‘lon qilingan bir qator maqolalar ham qayd etilgan kam sonli tadqiqotlar sirasiga kiradi<sup>39</sup>.

M.Axmedovaning “Riyoziy davlat” asari onomastikasi” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun qilgan dissertatsiyasi<sup>40</sup> ilmiy jihatdan muhim va dolzarb bo‘lgan masalalarga oid chuqur tahlilni o‘z ichiga oladi. M.Axmedovaning dissertatsiyasi Ogahiy tarixiy asarlari onomastikasini, xususan “Riyoziy davlat” (1825–1842) asari onomastikasini chuqur tahlil qilgan birinchi monografik tadqiqot sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega. Biroq “Firdavs ul-iqbol” asari insoniyat yaratilishidan boshlab, 1825-yilgacha bo‘lgan davr tarixini o‘z ichiga oladi. Ana shu ma‘noda ushbu dissertatsiya Munis va Ogahiy tarixiy asarlari onomastikasi bo‘yicha bajarilgan dastlabki ishlardan biri sanaladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Urganch davlat universitetida olib borilayotgan “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari onomastikasini o‘rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

asar onomastik birliklari tarixiy-etimologik tahlilini turkiy, arabiy, eroniy qatlamlar, shuningdek, boshqa tillarga oid birliklar tarzida amalga oshirish;

asardagi atoqli otlarning, antroponim, toponim, gidronim, kosmonim, etnonim, fitonim, bibliionim kabi semantik turlarini o‘rganish;

asar tarkibidagi atoqli otlarning struktur xususiyatlarini tahlil qilish;

asarda qo‘llangan atoqli otlarning funksional xususiyatlarini tahlil qilish;

xalq tafakkuri, idroki, mental ongi, milliy-madaniy belgilarini ko‘rsatishda asar atoqli otlarining o‘rni va ahamiyatini hamda lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali ochib berish;

zarur o‘rinlarda asar onomastikasini boshqa tarixiy asarlar onomastikasi bilan qiyosiy o‘rganish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “Firdavs ul-iqbol” asari ilmiy-tanqidiy nashri<sup>41</sup>, shuningdek, o‘rni bilan asarning boshqa nashrlari<sup>42</sup>ga ham murojaat

---

Тошкент, 2009. – 155 б.; Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2018. – 248 б.; Маҳмудов Р. Огаҳий тарихий асарларида ўзлашмалар: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2022. – 242 б.; Axmedova M.F. Ogahiyning “Riyoziy-davlat” asari onomastikasi: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Urganch, 2023. – 69 b.

<sup>38</sup> Ёкубов И., Матёкубова Т. Огаҳий ижодида космогоник мифология талқини. // Огаҳий абадияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б.118.; Ўрозбоев А. Огаҳийнинг «Риёз уд-давлат» асарида айрим терминларнинг қўлланилиши. // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – Б.99.

<sup>39</sup> Qodirova X. Ogahiy ijodida qo‘llanilgan laqablarning Xorazm shevasiga ta‘sir. // “Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar uchun namuna” mavzusida respublika anjumani materiallari. – Toshkent, 2020. – B.108-111.; Shu muallif. “Firdavs ul-iqbol” asarida arabcha ismlar. // Onomastika masalalari. – Toshkent, 2016. – B.88-90.

<sup>40</sup> Axmedova M.F. Ogahiyning “Riyoziy-davlat” asari onomastikasi: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Urganch, 2023. – 69 b.

<sup>41</sup> Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988.

<sup>42</sup> Шермухаммад Мунис, Мухаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахтлар боғи). Нашрга тайёрловчилар

qilindi.

**Tadqiqotning predmetini** Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarida qoʻllangan atoqli otlarning stratigrafik, struktur, semantik, funksional, stilistik va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, kuzatish, statistik va taqqoslash, lingvokulturologik, diaxron tavsiflash, qiyosiy-tarixiy kabi tadqiqot va tahlil usullari qoʻllanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“Firdavs ul-iqbol” asaridagi *Darband, Daragiz qoʻrgʻoni, Pirnaxos, Shayx Jalil ota* kabi atoqli otlarning stratigrafik tahlili asosida asar onomastik koʻlami turkiy, arabiy, eroniy, shuningdek, boshqa tillarga oid apellyativlardan shakllangani asoslangan;

asar tarkibidagi *Jurjon, Namrud, Badr, Xizreli, Shoʻrbuloq, Tangriyorboshi* kabi atoqli otlar apellyativ tarkibiga koʻra bir yoki koʻp morfemali; *Safar, Barlos, Chibiqli, Yilgʻinli* kabi birliklar yasalish asosiga koʻra tub yoki yasama apellyativli boʻlishi, shu bilan birga, *Qiniqli, Qoʻshtangʻali, Ochamayli, Dorugʻan, Sirchali* kabi atoqli otlar bugungi kun onomastik birliklaridan semantik, derivatsion va struktur xususiyatlari bilan farq qilishi isbotlangan;

asardagi *Berka sulton, Qurbon hoji* kabi antroponimlar, *Yorti qum, Abu Qabis togʻi* kabi toponimlar, *Mehr, Moh, Zuhul, Surayyo, Zuhra* kabi kosmonimlar, *olosh, qizilbosh, toʻrtqaro* kabi etnonimlar, *Anqo, Semurgʻ* kabi zoonimlarning pretsedent nom sifatida allyuziv nom, intertekstuallik, oʻxshatish etaloni, madaniy kod singari xususiyatlarga ega boʻlishi matnning lisoniy tahlili asosida dalillangan;

asardagi *Biyik qir, Ishqobod* kabi toponimlar, *Yusuf, Masih, Foruq* kabi antroponimlar, *Zamon quduqi, Soribiy nahri* kabi gidronimlar, *Qaroxoʻja, Koʻkoʻzakli* kabi etnonimlarning ekspressiv, affektiv, vokativ, volyutativ, diskurs, indikator, ajratish (farqlash) kabi funksional oʻziga xosliklari tahlili, shuningdek, onomastik birliklar trop va uslubiy figuralarning asar matnini shakllantirishdagi oʻrni ochib berilgan.

**Dissertatsiyaning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Firdavs ul-iqbol” onomastikasi tadqiqi yuzasidan chiqarilgan xulosalar oʻzbek tilshunosligi, xususan, oʻzbek tili tarixi uchun muhim ilmiy-nazariy maʼlumotlar berishi, “Onomastika”, “Lingvokulturologiya”, “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”, “Etnolingvistika” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va oʻquv qoʻllanma, tadqiqotlar yaratishda manba boʻlib xizmat qiladi. Tadqiqot eski oʻzbek adabiy tili onomastik fondi shakllanish va rivojlanish jarayonlarini oʻrganishda ishonchli manbalardan biri boʻlib xizmat qiladi. Dissertatsiyada tadqiq etilgan materiallar eski oʻzbek adabiy tilining izohli lugʻati hamda Ogahiy asarlari tili izohli lugʻatini yaratishda asosiy manbalardan biri boʻlib

---

Н.Жумахўжа, С.Рўзимбоев, А.Аҳмедов. – Тошкент: О‘qituvchi, 2010. – 382 б.; Мунис ва Огахий. Фирдавс ул-икбол. Араб ёзувидан таъдил этган, кириш ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, И.Бекчонов ва Н.Полвонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 520 б.; Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. 2-жилд. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 176 б.; Шермуҳаммад Авазбий ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Фирдавсу-л-икбол (Бахт-саодат жаннати) – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2019, – 512 б.

xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, tasniflash, kuzatish, taqqoslash lingvokulturologik tahlil usullari bilan asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishda asar onomastikasining o'ziga xosliklari tahlil etilishi, bu jarayonning ayrim jihatlari tilshunoslikning eng so'nggi yutuqlari asosida ochib berilishi, onomastik birliklarda sodir bo'ladigan lisoniy o'zgarishlar va ularni yuzaga keltiruvchi omillar haqidagi ilmiy qarashlar bayon etilishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natija va xulosalari o'zbek onomastikasi, stilistikasi, matn tilshunosligi hamda nomshunoslik asoslariga oid darslik va o'quv qo'llanmalar yozishda, oliy o'quv yurtlarida "O'zbek tili tarixi", "O'zbek tili tarixiy onomastikasi", "Nomshunoslik asoslari" kabi fanlarni o'qitishda, tarixiy asarlarning yoki umumiy onomastik lug'atlarni yaratishda manba hamda material vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asari onomastikasini o'rganish asosida:

"Firdavs ul-iqbol" asaridagi Darband, Daragiz qo'rg'oni, Pirnaxos, Shayx Jalil ota kabi atoqli otlarning stratigrafik tahlili asosida asar onomastik ko'lami turkiy, arabiy, eroniy, shuningdek, boshqa tillarga oid apellyativlardan shakllangani asoslangani, asar tarkibidagi Jurjon, Namrud, Badr, Xizreli, Sho'rbuloq, Tangriyorboshi kabi atoqli otlar apellyativ tarkibiga ko'ra bir yoki ko'p morfemali; Safar, Barlos, Chibiqli, Yilg'inli kabi birliklar yasaliş asosiga ko'ra tub yoki yasama apellyativli bo'lishi, shu bilan birga, Qiniqli, Qo'shtamg'ali, Ochamayli, Dorug'an, Sirchali kabi atoqli otlar bugungi kun onomastik birliklaridan semantik, derivatsion va struktur xususiyatlari bilan farq qilishi isbotlanganiga doir xulosalardan Xorazm Ma'mun akademiyasida faoliyat olib borayotgan A-FA-2019-9 shifrlı "Qadimiy noyob qo'lyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish" amaliy loyihasida dissertatsiya ilmiy natijalaridan keng foydalanilgan (Xorazm Ma'mun akademiyasining 2024-yil 15-avgustdagi 136/2-24-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur tadqiqot materiallari fondida saqlanayotgan qator qo'lyozma manbalarni tabdil qilish jarayonida uchragan atoqli otlarni joriy alifbolarga o'tkazish hamda tahlil qilishga xizmat qilgan;

asardagi Berka sulton, Qurbon hoji kabi antroponimlar, Yorti qum, Abu Qabis tog'i kabi toponimlar, Mehr, Moh, Zuhai, Surayyo, Zuhra kabi kosmonimlar, olosha, qizilbosh, to'rtqaro kabi etnonimlar, Anqo, Semurg' kabi zoonimlarning pretsedent nom sifatida allyuziv nom, intertekstuallik, o'xshatish etaloni, madaniy kod singari xususiyatlarga ega bo'lishi matnning lisoniy tahlili asosida dalillangani, asardagi Biyik qir, Ishqobod kabi toponimlar, Yusuf, Masih, Foruq kabi antroponimlar, Zamon quduqi, Soribiy nahri kabi gidronimlar, Qaroxo'ja, Ko'ko'zakli kabi etnonimlarning ekspressiv, affektiv, vokativ,

volyutativ, diskurs, indikator, ajratish (farqlash) kabi funksional o‘ziga xosliklari tahlili, shuningdek, onomastik birliklar trop va uslubiy figuralarning asar matnini shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgani bilan bog‘liq xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda amalga oshirilgan FA-FI-OO5 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 26-iyundagi 250/1-son ma’lumotnomasi). Natijada turkiy tilda, eski turkiy tilda, eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llangan onomastik birliklarda sodir bo‘ladigan lisoniy o‘zgarishlar va ularni yuzaga keltiruvchi omillar haqidagi ilmiy qarashlar yanada boyigan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, shu jumladan, 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta; xorijiy jurnalda 2 ta; xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallarida (6 ta xalqaro, 4 ta respublika anjumanlarida), ilmiy-nazariy to‘plamlarda dissertatsiya natijalari o‘z aksini topgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asoslilik, metodologik mukammalligi, qo‘yilgan masalalarning aniqligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanishi bilan izohlanadi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Ish kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 154 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsad hamda vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Firdavs ul-iqbol**” asarida **atoqli otlar va ularning stratigrafik hamda struktur tadqiqiga** bag‘ishlanib, uch paragrafdan iborat. Birinchi paragraf “Firdavs ul-iqbol” asarini lisoniy tadqiq qilish masalasiga oid. “Firdavs ul-iqbol”dagi tarixiy nomlar – antroponim, toponim, etnonim kabilar bugungi kunga qadar tadqiq qilinmagan. “Tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo‘lishi, yasalishi va shakllanishi, ma’no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa xil lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma’rifiy

tomonlari fan uchun qorong'iligicha qolmoqda"<sup>43</sup>. Abulg'oz Bahodirxon boshlab bergan Xorazm muarrixlik maktabi keyinchalik Munis, Ogahiy va Bayoniylar tomonidan yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Bu maktab vakillari tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarning voqealar ko'lami, manbalarning ishonarliligi va ko'pligi jihatidan boshqa xonlik tarixnavislik maktablaridan ustun turishini rus olimi V.V.Bartold ta'kidlab o'tgan<sup>44</sup>. "Firdavs ul-iqbol" asari eng qadimgi davrlardan 1825-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Asarning A.N.Samoylovich qoraqalpoqlar, P.P.Ivanov turkmanlar va qoraqalpoqlar, N.Mingulov qozoqlar tarixiga oid qismlarini rus tiliga tarjima qilganlar<sup>45</sup>. V.V.Bartold A.D.Kalmikovning "Xiva" asarida "Firdavs ul-iqbol" kitobidan qilingan ba'zi tarjimalarni keltirgan<sup>46</sup>. B.V.Lunin maqolasida<sup>47</sup>, Turkiy qo'lyozmalar katalogida<sup>48</sup> ham asar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

"Firdavs ul-iqbol" asarining ilmiy-tanqidiy nashri 1988-yili Indiana universitetining professori Yuriy Bregel tomonidan Amerikada amalga oshirildi<sup>49</sup>. Olim ilmiy-tanqidiy matni nashrining kirish qismida asarning o'rganilish tarixi, ahamiyati, Xorazm adabiyoti va adabiy muhiti, geografiyasi, etnik qatlami va boshqalar haqida ingliz tilida atroflicha ma'lumot bergan.

Ushbu paragrafda Ogahiy asarlari tili bo'yicha A.O'razboyev, R.Mahmudov, M.Axmedova<sup>50</sup>, A.Primov, X.Qodirovalarning tadqiqolari<sup>51</sup>da munosabat bildirilgan.

"Firdavs ul-iqbol"dagi atoqli otlarning stratigrafik tadqiqi" deb nomlangan ikkinchi paragrafda turkiy (*O'taqul* (25) – "o'ta", "o'tab" so'zlari bilan boshlangan qo'shma ismlar; *Bo'rili* – bo'rilar makoni bo'lib, bo'ri ko'p uchraydigan joyga nisbatan qo'llangan: "...*Va andin royatafrozi nazhat bo'lub, Bo'rili manzilig'akim, Uch o'choq muqobilasidadur*" (FI: 478); *Yilg'inli* – yilg'in o'simligi ko'p uchragani uchun shunday nomlangan; *Gujumli* – qayrag'ochdoshlar oilasiga mansub barg to'kuvchi, asosan, Xorazmda soya-salqin berish uchun ekiluvchi daraxtlar turkumi, manzarali o'simlik. Gujum ko'p yetishtirilganligi uchun hamda hudud tabiiy xususiyatiga qarab shunday nomlangan: "...*Andin o'tub, Yilg'inlida bir oqshom bo'ldilar va andin sahar vaqti harakat qilib*

<sup>43</sup> Бегматов Э., Хусанов Н., Ёкубов Ш., Бокиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1992, 5, 6-сонлар, 21-бет.

<sup>44</sup> Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Сочинения. – Т. II. – Москва, 1963. – 1020 с.

<sup>45</sup> Материалы по истории каракалпаков. Сборник. М. – Л., 1935. С. 91-127; Иванов П. П. Хивинские хроники XIX в. Муниса-Агехи как источник по истории туркмен. МИТТ. II. С. 323-426; Материалы по истории Казахских ханств. XV-XVIII вв. – С. 435-475.

<sup>46</sup> Бартольд В.В. Сочинения. IX том. – М., 1977. – С. 444.

<sup>47</sup> Лунин Б.В. Прошлое и настоящее Хорезма в науке. История Хорезма. Ташкент, 1976. – С. 6-8.

<sup>48</sup> Дмитриева Л.В. Каталог тюркских рукописей. – Москва, 2002. – С. 618.

<sup>49</sup> Firdavs ul-iqbal History of Khorezm Edited by Yuri Bregel. Leiden New York, 1988.

<sup>50</sup> Ўразбоев А.Д. Огахийнинг "Риёз уд-давла" асарида ижтимоий-сиёсий лексика. Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 2009. 155 бет; Ўразбоев А.Д. Огахийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2018. 248 бет.; Махмудов Р. Огахий тарихий асарларида ўзлашмалар. Филол. фанлари д-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2022. 242 бет.; Axmedova M.F. Ogahiyning "Riyozu-d-davla" asari onomastikasi filol.fan. falsafa d-ri (PhD) diss. avtoreferati. – Urganch, 2023. – 69 b.

<sup>51</sup> Qodirova X. Ogahiy ijodida qo'llanilgan laqablarning Xorazm shevasiga ta'siri. // "Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar uchun namuna" mavzusida respublika anjumani materiallari. – Toshkent, 2020. – B.108-111.; Qodirova X. "Firdavs ul-iqbol" asarida arabcha ismlar. // Onomastika masalalari. – Toshkent, 2016. – B. 88-90.

*choshgohda Gujumliga nuzul etdilar*”(FI: 461)), arabiy (Allohning sifatlari asosida shakllangan ismlar: *Abdulla* (363), *Abduqodir* (106, 127); payg‘ambar va xalifalarning ism va laqablari: *Muhammad* (9), *Alisher* (170, 260), *Usmon* (73,88), *Umar* (102), *Yoqub* (102), bundan tashqari *Anna Qurbon bahodir taka*<sup>52</sup>, ...), eroniy (*Sardor*<sup>53</sup> سردار antroponimi *sar* va *-dor* qismlaridan iborat. *Dor* komponenti qadimgi fors tiliga taalluqli hisoblanib, hozirda *doshtan* داشتن – ega bo‘lmoq fe’lining hozirgi zamon negizidir; *Jamshid*<sup>54</sup> – ulug‘, ulkan, muazzam. “Shohnoma” asaridagi afsonaviy podshohning nomi<sup>55</sup>; *Navxos* – qishloq nomi bo‘lib, Eroniy *nav* (yangi), *xos/xas/qas* (buloq, kanal) – *yangi kanal* (bo‘yidagi qishloq). (108, 130); *Pirnaxos* – qishloq. Qadimgi eroniy tilda *pir* (qadimgi, ko‘hna) *nav* (yangi) *xos* (ariq) *qadimgi Navxos* (yangi ariq) qishlog‘i; *Darband* – qishloq. Fors-tojikcha bo‘lib, “tog‘ darasining tor, siqiq joyi” darband joylashgan qishloq hamda boshqa tillarga oid atoqli otlar (*Ya‘qub*<sup>56</sup>*bek* – o‘kcha, tovon, izidan boruvchi, ergashuvchi ma’nolariga ega; *Chingizxon* (59...394-betlar) – ushbu antroponim mo‘g‘ul tiliga oid bo‘lib, buyuk, qudratli xon; *O‘rus viloyati* (87, 88...487-betlar); *Nikuloy Nikuloyevich* – o‘rus elchisi) (444), *Giroy*, *Davlat Girey*, *Andrey gubernot* – o‘rus to‘ralari) o‘rganilgan. Asardagi nomlarning aksariyat qismini turkiy til uchun mushtarak bo‘lgan antroponimlar tashkil qiladi.

Bobning uchinchi paragrafi “Asar tilidagi atoqli otlarning struktur tadqiqi” deb nomlangan. Mazkur paragraf ikki qismdan iborat. Bir morfemali nomlar (*Sa‘diy*, *Falotun*, *Rustam*, *Namrud* antroponimlar, *Badr*, *Bag‘dod*, *Balx*, *Gurlon*, *Jurjon*, *Kashmir*, *Qatag‘an* kabi toponimlar, *Bayot*, *Kurd No‘g‘oy*, *Totor* kabi etnonimlar tahlil qilingan); a) ikki morfemali antroponimlar: *O‘g‘uzxon*, *Tojibiy qiyot*, *Odinaboy bahodir*, *To‘shakchi*; toponimlar: *Mingqishloq*, *Yamg‘urli*, *Bog‘ot*; etnonimlar: *Turbatli*, *Xorazmiylar*, *Yamg‘urli*, *Qulonchi*, *Olabuluk*, *Xizreli*; fitonimlar: *Sidratilmuntaho* (*Jannat daraxtlari*), *qorolu*, *zardolu*; gidronimlar: *Sho‘rbuloq*, *Sho‘rquyi* (*quduq*), *Xo‘jaeli arig‘i*, *Go‘zsiz/Ko‘zsiz suyi*, *Garmob suyi*; kosmonimlar: *Banotu-n-na‘sh*, *Nasri Toir*, *Kayvonsarir*, *Kahkashon*; b) uch morfemali antroponimlar (*Tangriyorboshi*, *Besh sorig‘ xitoy* (*qoraqalpoq*) *kabilar*) tahlilga tortilgan.

Ikkinchi qismda tub va yasama strukturali atoqli otlarning tarkibiy tahlili jarayonida ularning yasalish jihatlari ham tadqiq qilingan: *-li* qo‘shimchasi ko‘pgina turkiy tillarning so‘z yasash tizimida ancha sermahsul qo‘shimchalardan biridir. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida mazkur qo‘shimcha bilan hosil qilingan so‘zlar shu o‘zakdan anglashilgan mazmunga ega ekanligi qayd etiladi<sup>57</sup>. Mazkur affiks davrlar o‘tishi jarayonida mazmunan ancha kengaygan va faqat shaxs otiga emas, boshqa turdagi o‘zaklarga ham qo‘shila olishini ko‘rsatdi. Masalan, *Yarmishli*, *Yilanli*, *Qabaqli*, *Gujumli*, *Savganli*, *Qangli*,

<sup>52</sup> Шермухаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 2010. 468 б.

<sup>53</sup> Шермухаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2010. 510 б.

<sup>54</sup> Ko‘rsatilgan manba. 17,57, 60, 92, 183, 240, 328, 467-betlar

<sup>55</sup> Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент, 2010. – Б. 133.

<sup>56</sup> Шермухаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. “Фирдавс ул-икбол”. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2010. 80, 94, 382-betlar.

<sup>57</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3 томлик. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1960–1963. – Т.1. – Б. 463.

*Yilg'inli* kabilarni aytish mumkin. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *Qabaqli* emas, *Qabag'liq* – qovoq o'sadigan joy, qovoqzor, *Qag'unluq* – qovun o'sadigan joy, qovun poliz deya izohlangan. Asarda yasama strukturali atoqli otlarning ba'zi namunalorigina uchraydi. Masalan: *-chi* qo'shimchali: *Ayochi, Aynalchi, Bo'zachi, Yomg'irchi, Turumchi*; *-chiq* qo'shimchali: *Bavarchiq*; *-toy* qo'shimchali: *Aqatoy, Mangutoy, Mingtoy*; *-cha* qo'shimchali: *Baroqcha, Bug'cha, Ko'kcha, Mangucha*; *-g'an* qo'shimchali: *Baqirg'an, Dorug'an*; *-lik//luk*; *liq//luq* qo'shimchali: *Kuchluk, Olmaliq, Tomliq, qarluq, Uskunluk*; *-kay* qo'shimchali: *Ogakay*; *-mish // mush* qo'shimchali *Sotilmish* (xotun), *To'ramish, To'xtamish*; *-li* qo'shimchali: *Turbatli, Sirchali, Adoqli, Ochamoyli, qiniqli*; *-iston* qo'shimchali: *Turkiston, Hindiston* va boshqalar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Firdavs ul-iqbol**" asaridagi **atoqli otlarning semantik turlari bo'yicha tadqiqi**" deb nomlangan bo'lib, to'qqiz paragrafdan tashkil topgan. Asarda 2500 dan ortiq atoqli ot mavjud. Ulardan 1556 tasi antroponimlar, 766 tasi toponimlar, 182 tasi etnonimlar, 100 dan ortiq kosmonimlar, 70 ga yaqini fitonimlar, 80 ga yaqin zoonimlar, 38 tasi biblionimlardir. Bundan tashqari, asarda atoqli otlarning boshqa turlarini ham uchratish mumkin. Birinchi paragrafda antroponimlar – eng sermahsul bo'lgan onomastik birlik, ism, familiya, ota ismi, nisba hamda laqablar tadqiq etildi. Asarda ismlar quyidagi mavzu yo'nalishlariga ajratish mumkin: Ismda tug'ilish vaqti, davri, o'rni holati kabi belgilaridan birining aks etishi: *Annaqurbon* bahodir taka, *Jumaniyoz, Navro'z* yimroli, *Jumaquli, Odinaboy* otoliq, *Safarboy* chovdur, *O'rozali* yavmut, *Safar* dali qo'ng'iroq; Alloh sifatleri bilan birga qo'llangan ismlar: *Abduxoliq* tabat Mirzo, *Abduljabbor* boy ibn *Abdurahmon* mehtar, *Abdulg'affor* noyib, *Abdullatif* dorug'a; etnonimlar bilan bog'liq va ular bilan birga qo'llangan ismlar: *Barlos, Baroq biy, Shohniyoz qoraqalpoq, Tinali do'rmon, Yodgorbek turkman, Suyunbiy qiyot, O'rozoq xo'jaeli, Androy* gubernot *o'rus, Turktoy*; o'rin, joy bilan bog'liq ismlar: Avazmuhammadbiy *Urganjiy, Nukuz*; zooleksemalar bilan bog'liq ismlar: *Boybo'rixon, Jayron* qalmoq, *Burgutboy* biy, *Buqoxon* ibn *Totorxon, Bekarlon* mushrif, *Itbaroqxon, Shag'ol biy, Elbarsxon, Sherbobo* qo'shbegi; qush nomlari bilan bog'liq ismlar: *Bolta qarg'a, Lochin* qalmoq, *Burgut* bahodir qalmoq; ranglar bilan bog'liq ismlar: *Ko'kko'zbiy qoraqalpoq, Malla bek* dodxoh, *Qoraxon, Oqmuhammad* so'fi, *Oqmon* (*Oqmuhammad* ismining qisqargan shakli); kosmonimlar bilan bog'liq ismlar: *Gundo'g'di* qozi yimroli, *Kuntug'ar* bahodir, *Oyxon* ibn *O'g'uzxon, Oydo'g'dibek* ibn *Nurxo'jabek, Shamsiddin* xo'ja rais *Yulduzxon* ibn *O'g'uzxon*; orzu-istak, umid va tilak, xohishlar bilan bog'liq ismlar: *Do'stniyoz, Avazbek taka, Tursunxon, Davlatyor, Omonkeldi, To'xta xonim, Suyunbiy, Yaxshiliq biy*; o'simlik nomi bilan bog'liq ismlar: *Sarimsaq biy*; narsa-buyum nomi bilan bog'liq ismlar: *O'roq biy* churaog'osi, *Bekbolta* otoliq, *To'shakchi, Bolta* niyoz, *Mullo Bolta*; turli xil mansab, unvon nomlari bilan birga kelgan ismlar: *Abdurahmon yuzboshi, Annaquli parvonachi, Amir Shohniyoz otaliq, Avazberdi biy* kabi. Ota ismi: *Jumaniyozbek ibn Hasanmurod, Yodgorxon ibn Temurshayx, Bahrom ibn Yazdjard*; Nisbalar: *Ismoil Tilloiy, Iskandar* xo'ja *Bekobodiy, Avazmuhammadbiy Urganjiy, Yormuhammad bek Qo'shko'pruki*y kabilalar tahlilga tortilgan. Asarda 1300 dan

ortiq ism, 130 dan ortiq laqablar va laqab vazifasida keluvchi otlar, unvon va mansab nomlari, siyosiy, diniy titullar uchraydi. 800 ga yaqin geografik joy nomlari qoʻllangan boʻlib, bunday real toponimik nomlar baʼzi oʻrinlarda tasvirning jonli va badiiy chiqishini taʼminlash uchun xizmat qilgan. Bu laqablarni baʼzi xususiyatlari asosida quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: Shaxsning tili, nutqiy xususiyatini ifoda qiluvchi laqablar: *Kilgit* – duduq, chuchuk til. *Chechan* – soʻzamol, maʼnosida; shaxsning salbiy xususiyatini anglatuvchi laqablar: *Xoʻjugʻum tentak*; shaxsning kasb-kori, faoliyatiga ishora qiluvchi laqablar: *Timach mergan, Qadan tayshi*. (*Tayshi* – yaxshi kuylovchi hofiz); shaxsning gavda tuzilishidagi biror xususiyat, nuqsonga ishora qiluvchi laqablar: *Buljar dugʻlan* (*oqsoq*), *Qoʻniqqimar* (*ulugʻ, katta burun*); shaxsning mansabi, unvoniga ishora qiluvchi laqablar: *Qutli qoon, Berka sulton, Bekquli otaliq, Qurbon hoji, Dinmuhammad oʻnbeigi*; shaxsning qaysi urugʻ, qabilaga yoki jamoaga, sulolaga, avlod-ajdodga mansublikni anglatuvchi laqablar: *Ilk turkman, Ixtiyoriddin turkman, Bekquli inoq, Hofiz qoʻngʻirot, Ubaydxon nayman*; shaxsni ulugʻlovchi laqablar: *Koʻkcha* – tangrining beti kabilar tahlilga tortilgan.

Ikkinchi paragrafda toponimlar – mamlakat, shahar, qishloq, qalʼa, dasht, daryo, dovon, bogʻ, koʻl va shu kabi joylarning nomlari tahlilga tortilgan. Masalan, maʼlum bir hudud, joyning nomi: *Bekobod, Nukuz, Yangiariq, Hayrobod, Qoʻshkoʻprik, Gurlon, Jurjon, Bogʻot*; qishloqlar nomi: *Badrkand, Poykant, Hadra, Pirnavxost, Kenagas, Bogʻlon*; qalʼa nomi: *Besh qalʼa, Biyoboncha qalʼasi, Kuran qalʼasi, Kuyuk qalʼa, Mir qalʼasi, Oraz qalʼa, Oq qalʼa, Sakar qalʼasi, Qipchoq qalʼa*; sahro, qumlar nomi: *Darvoza qumi, Yorti qum, Zangʻar qumi, Oqqum, Qattigʻ ochon qumi*; togʻlar nomi: *Abu Qabis togʻi, Bilqon togʻi, Judi togʻi, Kar togʻi, Kubo, Kuh Chugʻro Shayx Jalil togʻi*; bogʻlar nomi: *Bogʻi Dilkusho, Bogʻi murod, Bogʻobod*; tepa, qirlar nomi: *Arnak/Dasht qiri, Bayot qiri, Baland (biyik) qir, Beshtom qiri, Koʻkcha qiri, Sulton saroy qiri*; qabriston va mozorlar nomi: *Abdol bobo mozor, Abdulloh Norinjoniy shayx mozor, Jigarband oto mozori, Oyxoʻja mozor, Najmiddin Kubro mozor*; koʻpriklar nomi: *Taxtakoʻpruk, Toshkoʻpruk, Qumyosqa koʻpruki, Goʻja koʻpruki*.

Uchinchi paragrafda gidronimlar, ularning qanday suv obyektlarining atoqli otlarini anglatib kelishiga koʻra turlari oʻrganilgan: dengizlar nomi: *Mozandaron tengizi, Oqcha tengizi, Tavqara tengizi, Xorazm tengizi*; daryolar nomi: *Murgʻob Marv daryosi, Omu, Omuya, Jayhun, Xoʻjand kabilar*. Daryo nomlari tarkibida baʼzan suyi soʻzi ham ishlatilgan: *Sunbor suyi, Sir suyi, Omu suyi, Tajan suyi, Jammuron suyi, Goʻzsiz suyi, Garmob suyi, Xirmantav suyi* kabi. Asarda suv, suy soʻzi biror nom bilan kelsa, daryo nomini anglatadi, deya izohlangan.

Ariq, arna, hovuzlar nomi: *Badrxon arigʻi, Boshqird arigʻi, Bogʻlon arnasi, Ixlos arigʻi, Kuyanik arigʻi, Omonquli arigʻi, Otoliq arna, Pahlavon Oto yofi, Poyanda, Soribiy nahri, Shohobod arigʻi, Eljik yofi, Xosa arigʻi* kabilar; kechuvlar nomi: *Oqyor kechuvi, Toshkechuv, Qorabosh kechuvi*; koʻllar nomi: *Makojili koʻli, Uygʻur koʻli, Xoʻja koʻli, Qattigʻ koʻl, Mochon koʻli, Tumor koʻl*; quduq nomi: *Dali quduq, Zamon quduqi, Oji quduq, Serob quduqi, Sogʻcha quduqi, Sonsiz quduqi, Uch oji quduq, Xon quduqi, Shoʻrquyi* kabilar.

Bobning toʻrtinchi paragrafida kosmonimlar tahlilga tortilgan. Osmon

jismlari nomi, asosan, asar tarkibida uchraydigan masnaviy, qit'alarda tashbehlar vositasida berilgan. Jumladan,

*Zuhal*, kel huzurimda qil pastlik,  
Adab birla tur, qilma badmastlik.  
*Surayyo*, karam panjasin qil ochig',  
Durringdin oyoqim'ga keltur sochig'. (376)

Ushbu parchadagi *Zuhal* – Saturn sayyorasining arabcha nomi hisoblanib, qora rangli, maqomi esa yettinchi osmondadir. U quyosh sistemasida *Merkuriy*, *Venera*, *Yer*, *Mars*, *Yupiter*dan keyin joylashgan, shu bilan birga, ushbu tizimdagi eng yengil va eng chiroyli sayyora deb e'tirof etiladi.

Alisher Navoiyning "Sittayi zaruriya"sida "*Osmon qal'asining soqchisi (Zuhal yulduzi) vazifasini bajarishga kirishgach, mash'alalar yoqib, yuqori olamni ravshan qiladi*" tarzida berilgan. A.Navoiyning yana bir baytida "*Qil davotimni, ey Zuhal, mamlu, Xayi ruxsoradin solib qora suv*" deganda, Zuhal yulduzidan yuzingdagi qora rangli ter bilan davotini siyoh bilan to'ldirishini nazarda tutadi"(128).

"Firdavs ul-iqbol"ning yana bir o'rinida bir qancha kosmonimlar keladi:

*Oy* bila *Mushtariy* qiron aylab,  
*Tir* ila *Zuhra* iqtiron aylab.  
*Oftobi* munir o'lub soyir,  
Edi *Hilol* jonibi nozir. (172)

Masalan, birinchi baytdagi *Mushtariy* kosmonim sifatida ishlatilishi bilan bir qatorda tanosub san'atini ham qo'llagan bo'lsa, ayrim o'rinlarda "...Kel, ey *Mushtariy* sid qu ixlos ila, Duom ayla adiiyayi xos ila" deganda ko'p ma'nolilik asosida murojaat qilmoqda. Masnaviyning keyingi misrasida *Tir* deganda *Merkuriy* sayyorasi nazarda tutilgan. Qadimgi ajdodlarimiz oktabrni *Tishtrin* oyi deb ataganlar. Beruniy aynan shunday nomlanish Suriya, Falastin xalqlari va yahudiylar oy nomlarida ham bir xil ekanligini "Qonuni Ma'sudiy" asarida qayd etadi. Hozir *Tishtiriya* kosmonimi ilmiy adabiyotlarda *Sirius* (lotincha "*yaltiroq*" so'zidan) nomi bilan yuritilsa, xalq orasida *Tir yulduzi* deb ataladi<sup>58</sup>. Yulduzning turkiy tillardagi nomida ham ushbu lug'aviy ma'no mavjudligi tasodifiy emas. "Shajarayi turk"da ikki o'rinda *Yaltiroq yulduz* kosmonimi uchraydi<sup>59</sup>. "Firdavs ul-iqbol"da 3 o'rinda *Atorud* tarzida ishlatilgan. I.Bakirovaning "Navoiy asarlarida sayyora nomlari" maqolasida shoir asarlarida qo'llangan *Merkuriy* sayyorasining *Atorud // Atorid // Utorud* so'zi bilan ifodalanishi, mifologiyada esa u yozuvchilarning homiysi hisoblanishi ta'kidlangan<sup>60</sup>. Navoiy asarlarida "Tir (Atorud) yulduzi bir rammol (folbin)durki, quyoshning g'oyib bo'lganiga motam tutib fol ochadi, yulduzlar (uning) bisoti (to'shakchisi)ga folbinlik haqi uchun tangalar tashlaydilar", deya izohlangan o'rinlari mavjud.

<sup>58</sup> Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б.16.

<sup>59</sup> Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б.154.

<sup>60</sup> Бакирова И. Навоий асарларида сайёра номлари. // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2008. – №2. – Б.128.

**Etnonimlar** paragrafida *Alieli, Jamshidiy, Jo‘chi eli, To‘qtomish, Hasan eli, Xorazmiylar, Qaroahmad, chig‘atoy, qaroxonli, shayx* kabi etnonimik birliklar tarkibi antroponimlar asosida shakllangani kabi xususiyatlarga e‘tibor qaratildi: ... Va Berka Sulton chig‘atoy elig‘a chapovul urub, diyorig‘a yondi (FI: 133); joy nomlari asosida hosil bo‘lgan etnonimlar ham bor: *orolli, soylik* va boshqalar. O‘zbek etnonimlarini semantik jihatdan bir necha guruhga bo‘lish mumkin. Chunonchi, biron kasb-hunar nomi bilan yuritiladigan etnonimlar: *bolg‘ali, bo‘zachi, bakovul, tevachi, iyarchi (egarchi), qangli, qongli, qanqli, sayot (sayyod-ovchi), tulkichi, zargarlik, mirishkor, po‘latchi* va boshqalar. Tarkibida rang-tusni ifodalovchi so‘zlar mavjud etnonimlar: *ko‘ko‘zakli, olosha (soriq), soriq//soruq, qaroxo‘ja, qizilbosh, qizilboshiya, eski* kabi. Sonlar asosida shakllangan etnonimlar: *to‘rtqaro, uch o‘q, o‘n to‘rt urug‘, yuz, ming, nayman* va boshqalar.

**Fitonimlar** haqidagi oltinchi paragrafda o‘simliklar oziq-ovqat, yem-xashak, dorivor va manzarali xususiyatlariga ko‘ra mahalliy aholi turmushida muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. “Firdavs ul-iqbol” asarida ham fitonimlar ko‘p qo‘llangan: Shajarlar butub *Tubi va Sidravor* (jannat daraxtlari),

Kelib borcha *Tubi* kibi mevador.

*Rayohin* butub anda haddin fuzun,

*Sebarga* havoxoh, *sunbul* nigun (FI:130).

Ushbu parchada keltirilgan *Tubi va Sidratilmuntaho* – jannat daraxtlari deya muallif tomonidan izohlab o‘tilgan (FI: 86). Keyingi baytlarda *gul* hamda *sunbul* fitonimlari ham keltirilgan bo‘lib, *Sunbul* (arabcha boshhoq) piyozgullilar oilasiga mansub, lola bargiga o‘xshash uzun bargli o‘tsimon manzarali o‘simlik va uning g‘uj bo‘lib ochiladigan xushbo‘y, chiroyli gulidir<sup>61</sup>. Bundan tashqari, *gul, rayohin, chechak, g‘uncha, sunbul, nargis, nastarin, lola* kabilar tadqiq qilingan.

Bobning **zoonimlar** deb nomlangan keyingi paragrafida zoonimlar bilan birga, zooleksemalar ham tahlilga tortilgan: *Anqo* عنقا afsonaviy *Semurg‘// Simurug‘* qushining arabcha nomi. Mumtoz lug‘atlarda shunday nomlanishiga sabab bo‘yni uzun bo‘lgani, degan qaydlar bor. Demak, *Anqo* arabcha bo‘yin, gardan ma‘nosidagi *unuq* عنوق so‘zi bilan o‘zakdosh<sup>62</sup>. Haqiqatan, *anqo* “bo‘yni uzun” ma‘nosidagi *a‘naq* اعنق so‘zining muannas shaklidir<sup>63</sup>. *Anqo* Eron mifologiyasida *Simurg‘*, hind mifologiyasidagi *Garuda* bilan muvofiq keladi<sup>64</sup>.

*Ba‘zida lochini qaviy changol,*

*Urub Anqog‘a chang sa‘va misol. (FI, 261).*

Tasavvuf manbalarida ham Anqoning *Semurg‘* bilan bir qush nomi ekanligi qayd etilib, tasavvuf atamallari lug‘atlaridan biri “*Mir‘ot ul-ushshoq*”da uning anchayin nozik ma‘no anglatishi – **Semurg‘** baqo billoh, Ko‘hi Qof fanoyi zotiy va xaloyi asliyni anglatishi qayd etiladi<sup>65</sup>.

<sup>61</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. Beshinchi jild. –T.: Gafur‘ G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 595-bet.

<sup>62</sup> ۳۵۶ غياث الدين محمد. غياث اللغات. لکهنو. ۱۸۸۶. ص

<sup>63</sup> فرهنگ لاروسی عربی- فارسی. ترجمهء کتاب المعجم العربی الحديث. جلد دوم. تهران: امیر کبیر ۱۳۸۰ ه.ش. ص ۱۴۹۶

<sup>64</sup> Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1965. – С. 83.

<sup>65</sup> Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси Филол. фанл. док. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б.163.

Asarda “ot” tushunchasini ifodalovchi soʻzlardan biri bu – *raxsh*dir:

*Boʻlub, gard aro Raxshlar barqhez,  
Yolin ul sifatkim, tutun ichra tez. (FI: 56).*

Maʼlumki, Rustanning afsonaviy oti laqabi ham Raxsh boʻlganligi ilmiy va badiiy manbalarda keltirilgan. *Raxsh* haqida “Farhangi “Shohnoma”da eʼtiborli maʼlumotlar berilgan<sup>66</sup>. Ushbu paragrafda asarda qoʻllangan *shappar* (FI, 186-b.) – koʻrshapalak, *kaftor* (FI, 121-b.) – chiyaboʻri, *dagʻo* (FI, 129-b.) – yirtqich hayvon, *xarchang* (FI, 129-b.) – qisqichbaqa, *kurt* (FI, 128-b.) – boʻri, *yakron* (FI, 130-b.) – otning bir turi kabi zooleksemalar ham tahlil qilindi.

**Biblionimlar** sakkizinchi paragrafda tahlil qilingan. Har bir xalq tarixida muayyan tarixiy qimmatga ega boʻlgan badiiy, ilmiy, sanʼat asarlari yaratiladi, hujjatlar qabul qilinadi. Mazkur hujjatlarga, asarlarga maxsus nomlar beriladi. Mana shu nomlar onomastikada ideonimlar deb yuritiladi. Ideonimlar makrokoʻlamiga kiruvchi bibliionimlar orqali asarning mazmun va gʻoyaviy jihati nima haqida ekanligini anglash mumkin. “Firdavs ul-iqbol”da tilga olingan bibliionimlarning bugungi kun asar nomlaridan funksional-semantik jihatdan farqli tomonlari aniqlandi. Asarda bibliionimlarning hosil boʻlishida *-noma* komponentli birliklar, shuningdek, arabiy va forsiy izofalar asosida bogʻlangan nomlar koʻpchilikni tashkil qiladi: “*Chingiznoma*”, “*Zafarnoma*”, “*Tarixi olamoroyi Abbosiy*”, “*Ahsanu-t-tavorix*”, “*Ravzat us-safo*”, “*Jomiʼ at-tavorix*”, “*Arais al-majolis fi qisas al-anbiyo*”, “*Nizom at-tavorix*”, “*Tarixi Jaʼfariy*”, “*Tarixi Banokatiy*”, “*Tarixi jahonkushoyi Nodiriy*”, “*Tarixi anbiyo*”, “*Tarixi hukamo*”, “*Tarixi Muqaddasiy*”, “*Tarixi guzida*” kabilar.

Bobning toʻqqizinchi paragrafida oldingi paragrafda tahlil qilingan atoqli ot turlariga mansub boʻlmagan, ularga nisbatan kam qoʻllanishga ega boʻlgan boshqa turdagi atoqli otlar tahlilga tortilgan. Asar onomastik fondining bir qismini javor va ziyoratgoh nomlari – nekronimlar tashkil qiladi: *Imom Ali Rizo maqbarasi*; *Pahlavon Mahmud maqbarasi*. Asarda 4 oʻrinda qoʻllangan *Pahlavon Mahmud maqbarasi* Samarqanddagi *Shohi Zinda* Buxorodagi *Bahouddin Naqshband maqbaralaridek* eʼzozlanadigan oʻzbek, turkman, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning muqaddas ziyoratgohi, Xiva meʼmoriy obidalari ichida eng chiroyli va hashamatlisidir. Pahlavon Mahmud (1247-1326) mashhur polvon, hunarmand poʻstindoʻz usta va buyuk faylasuf shoir boʻlgan. Xalq unga “Pahlavon” laqabini berib, uni “Pahlavon Mahmud”, “Polvon ota”, “Hazrati Polvon pir” deb eʼzozlaydi: “Va Shayx origʻining sharqida Bogʻimurod, Xivaq ichida Hazrati qutbul olam va gʻavsul aʼzam Pahlavon Mahmud ibn Piryor Vali qaddasa sirrihumo ravzayi mutabarrikalarining janubidagʻi madrasa oning osoridindurkim, bagʻoyat oliy imoratdur (98).

Ishda *Eshon Maxzum hoji javori*, *Hakim ota maqbarasi* kabi nekronimlar tadqiq qilingan.

*Xrononim* – tarixiy davrlar, bosqichlarning atoqli otidir. “Firdavs ul-iqbol” asarida xrononim sirasiga eralar, muchal hamda taqvim nomlarini kiritish mumkin. Asarda hijriy oy nomlarining har biri qoʻllanilgan: *Muharram* (“harom qilingan”)

مازندرانى حسين شهيد فرهنگ شاهنامه (نام كسان و جاها) بلخ بنياد نشاپور ۱۳۸۸. ص. ۶۳۴۶

29 o‘rinda qo‘llangan, *Safar* (“sarg‘ayib qolish”) 23 o‘rinda qo‘llangan, *Rabi‘ul* avval (“avvalgi bahor”) 5 o‘rinda qo‘llangan, *Rabi‘us soniy* (lug‘aviy “ikkinchi bahor”) 3 o‘rinda qo‘llangan, *Jumodul avval* (“avvalgi muzlash”) 1 o‘rinda qo‘llangan, *Jumodus soniy* (“ikkinchi muzlash”) 1 o‘rinda qo‘llangan, *Rajab* (“o‘qni yoydan olish”, “to‘xtab turish”) 20 o‘rinda qo‘llangan, *Sha‘bon* (“ikki tog‘ni bo‘lib turuvchi dara”, “tarqalish”) 27 o‘rinda qo‘llangan, *Ramazon* (“qattiq qizish”) 31 o‘rinda qo‘llangan, *Shavvol* (“dumning ko‘tarilishi”) 16 o‘rinda qo‘llangan, *Zulqa‘da* (“o‘tiruvchi”) 25 o‘rinda qo‘llangan, *Zulhijja* (“haj egasi”) 21 o‘rinda qo‘llangan. Shuningdek, asarda turkiy muchal hisobidagi *Sichqon yili*, *Sigir yili*, *Bars yili*, *Tovshan yili*, *Lu (Baliq) yili*, *Yilon yili*, *Yilqi yili*, *Qo‘y yili*, *Maymun yili*, *Tovuq yili*, *It yili*, *To‘ng‘iz yili* kabi misollar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning 3-bobi “**“Firdavs ul-iqbol”dagi atoqli otlarning funksional-stilistik va lingvokulturologik xususiyatlari**” deb nomlangan va uning ilk paragrafi “**Funksional-stilistik xususiyatlari**” haqida. Asarda qo‘llangan har bir onomastik birlik biror bir obyektни nomlash bilan bir qatorda, muayyan uslubiy vazifani ham bajaradi. Badiiy asar onomastikasiga oid tadqiqot D.Andaniyozova tomonidan amalga oshirilgan, biroq unda mazkur birliklarning badiiy imkoniyatlari keng tadqiq qilinmaganini muallif qayd qilgan<sup>67</sup>. Onomastik birliklar ham boshqa so‘zlar kabi tilda turli vazifalarni bajaradi. So‘z biror bir joy, shaxs, asar va shu kabilarga nom sifatida qo‘yilgach, atoqli ot vazifasini ham o‘tay boshlaydi. Atoqli otlar avloddan avlodga ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-madaniy, tarixiy-etnografik xabarlarни tashiydi. Atoqli otlarning atab kelishdan tashqari, yana bir necha vazifalarni bajaradi. Har qanday atoqli ot, avvalo, atash vazifasini bajaradi, ya‘ni o‘ziga tegishli bo‘lgan shaxsni, jarayonni, joyni, manba kabilarni nomlaydi. Aytish mumkinki, asarda qo‘llangan atoqli otlar ma‘lum darajada atash vazifasini o‘taydi: *Bahodir xo‘ja go‘klan*, *Darvish biy*, *Do‘stnazar kutvol*, *Yovbosar*, *Baland (biyik) qir*, *Dali quduq*, *Yorti qum*, *Jayhun*, *Sonsiz quduq*, *barlos*, *boshqird*, *manqit*, *kirlovut* kabi.

Atoqli otlarga nom qo‘yilishida eng asosiy jihatlardan biri farqlash xususiyati bo‘lib, bitta hududdagi nomlar turli izohlovchilar, yordamchi nomlar yordamida farqlanadi: *Fathalixon chovushlu*, *Fathalixon afg‘on*, *Xudoynazar qoq*, *Xudoynazar bek*, *Tojiboy cho‘loq*, *Tojiboy qiyot*, *Oqto‘pa (Xorazmda)*, *Oqto‘pa (Xurosonda)*, *Tars oqar (Orollda)*, *Tars (Ters) oqar (Xurosonda)*; Boshqa tur atoqli otlarida ham shu jihatlari kuzatiladi: *Bolg‘ali qoraqalpoq*, *Bolg‘ali qo‘ng‘irot*, *Kenagas o‘zbek*, *kenagas qoraqalpoq*, *uyshun o‘zbek*, *uyshun qazoq*.

Baholash funksiyasiga ko‘ra asardagi atoqli otlarni 3 guruhga ajratgan holda tahlil qilish mumkin: ijobiy, salbiy ma‘no ifodalovchi va uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmagan atoqli otlar. Asarda Allohning sifatleri asosida shakllangan *Tangri*, *Qodir*, *Xoliq*, *Sone*, *Sulton*, *Olloh*, *Habib*, *Rahmon*, *G‘affor* kabi ismlari; payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.), halifalar nomi kabilari tilga olingan bo‘lib, ijobiy ma‘no ifodalovchi atoqli otlar sirasiga kiradi:

Kamoli sidqdin *Siddiqi* akbar,  
Nigini dahr aro farxunda nomi (FI:25)

<sup>67</sup> Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан... фал. д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2017. – Б 16.

Amiru-l-mo‘minin Umar ibn al-Xattob raziallohu anhuning arab tilidagi laqabi – “*Foruq*” (*dono*) qo‘llangan. Toponimlar: *Biyik qir, Bog‘i dilkusho, Ishqobod, Ixlos arig‘i*; etnonim: *qaroxon, qaroxo‘ja, o‘zbek* va shu kabilar; salbiy ma‘no ifodalovchi atoqli otlar: *Bolta kal, So‘fi kofir* kabilar; uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lmagan atoqli otlar: *Oruja xotun, Miskin Oto, ko‘ko‘zakli, soruq, Taxtako‘pruk, quyosh, bug‘doy, Zamon quduqi* kabilar.

Kommunikativ funksiya har qanday badiiy, ilmiy yoki tarixiy asar jamiyatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Muallif uzoq davr tarixini yozib qoldirish orqali kelgusi avlod bilan muloqotga kirishsa, uni o‘qish, tadqiq qilish jarayonida har bir inson asar muallifi bilan muloqotga kirishadi. Munis va Ogahiy o‘tmish davr voqealarini yozar ekan, bevosita tasvirlanayotgan voqealar yuzaga kelgan joy, shikor vaqtida qo‘llangan zooleksemalarning o‘ziga xos mahorat usuli bilan berilishi, insoniyat yaratilgan davrdan boshlangan voqealarning bayon qilinishida antroponimlarning uslubiy xususiyatlari borasida kitobxonni to‘liq tanishtirishga harakat qiladi. Asarda atoqli otlarning *ekspressiv, kulturologik, affektiv, vokativ, volyutativ, diskurs* kabi funksiyalarni ham bajarganini uchratish mumkin.

Asardagi atoqli otlar ifodalaydigan yana bir muhim funksiya *ekspressiv funksiyadir*. Bu funksiya, atoqli otlarning nomlanishidagi turli shakllardan foydalanish natijasida namoyon bo‘ladi: *Ka‘ba, Yusuf, Masih, Sulaymon* kabi.

Asarda bir qator pretsedent nomlar berilganki, ular onomastik birliklarning madaniy funksiyasini ko‘rsata oladi:

*Faridun-u Somi, Narimon qani,*

*Manuchehr* ila *Zoli* doston qani.

Qani *Navdar*, qani *Afrosiyob*, Qani *Bahman-u qani Asfandiyor*, (233-b).

Bobning ikkinchi paragrafi asarda keltirilgan atoqli otlarning **lingvokulturologik xususiyatlariga** bag‘ishlangan. Onomastik birliklarning lingvomadaniy jihatiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarda til leksikasining onomastik qatlami muayyan bir davr yoki urf-odatlar, rasm-rusumlar bilan bog‘lab o‘rganilgan<sup>68</sup>. Nomlarning tarixiy davrlashtirilishi, yuzaga kelish motivlari E.Begmatov ishlarida atroflicha yoritilgan<sup>69</sup>. Olim ism berishda milliy an‘ana tusini olgan asosiy motivlar sifatida nominativ, milliy-etnografik, estetik, axloqiy-tarbiyaviy, diniy motivlar<sup>70</sup>ni qayd etadiki, buni lingvomadaniy yondashuv deyish mumkin. Olamning lisoniy manzarasi, lisoniy ong, madaniy kod, lingvomadaniy konsept kabilarning onomastik birliklar bilan uzviy jihatlariga alohida e‘tibor qaratish joiz. Pretsedent birliklarning asosiy turlaridan biri hisoblangan pretsedent nomlar ham muayyan tilning onomastik ko‘lamiga kiruvchi birliklar sanaladi. Tarixiy asarlarda qo‘llangan nomlar milliy madaniyatni, xalqning estetik qarashlari va ruhiyatini o‘zida namoyon etuvchi muhim birliklardir. Asarda qo‘llangan pretsedent nomlarni tadqiq etish mualliflarning badiiy tafakkuri, xususan, o‘zbek madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlash imkonini beradi.

<sup>68</sup> Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Sharq ma‘rifati, 2020. – 206 б.

<sup>69</sup> Бу ҳақда қаранг: Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 148.

<sup>70</sup> О‘sha kitob. 148-149-betlar.

Asardagi pretsedent nomlarni tadqiq etish o‘zbek lingvomadaniyatiga xos jihatlarni ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Asarda sharq lingvomadaniyatiga mansub pretsedent nomlar salmoqli bo‘lib, ularni quyidagi xususiyatlariga ko‘ra tasniflab tahlil qilindi. Antroponimlar: *Nuh, Sulaymon, Hotam, Masih, Rustam, Bilqis, Iskandar, Xurshid, Rustam, Falotun, Hizr, Qobil, No‘shiravon, Yusuf, Bahrom, Chingizxon, Kayxusrav, Temur Ko‘ragon, Xorazmshoh, Alisher Navoiy, Najmiddin Kubro, Firdavsiy*; toponimlar: *Xorazm, Iroq, Shom, Buxoro, O‘rus, Hind, Rum, Arafot, Bayt ul muqaddas, Bog‘i dilkusho, Bobil, Kot, Koshg‘ar, Kashmir, Karbalo, Makka, Nur Oto, Oqsaroy, Tabriz, Xivaq, Turkiston, Urganj, Shom, Shirvon, Qarshi, Hamadon, Hakim ota Sulaymon (mozori), Hisor tog‘i, Hinduston* kabi; gidronimlar: *Amu suyi, Jayhun, Orol dengizi, Zarafshon, Shohobod* kabi; etnonimlar: *ajam, arab, turk (atrok), xitoy, qorluq, o‘zbek, o‘rus, uyg‘ur* kabi; zoonimlar: *Semurg‘, Anqo, Raxsh* kabi; bibliionimlar: “*Zafarnoma*”, “*Tarixi anbiyo*”, “*Tarixi hukamo*” kabi; kosmonimlar: *Quyosh, Zuhro, Venera, Surayyo, Tir, Atorud, Shams, Somon yo‘li, Ko‘k* va shu kabilar.

Pretsedent nomlar allyuziv nom vazifasida qo‘llanishi ham kuzatildi. Allyuziv nomlarga badiyatida uslubiy figura deb qaralsa, lingvokulturologiyada ular ikki madaniy – semiotik maydonni o‘zaro tutashtiruvchi vosita sifatida e‘tirof etiladi<sup>71</sup>. Asarda ikkinchi jihati salmoqlidir:

Qani jami’ *Xorazmshoh* kim jahon,  
Olor adlidin erdi jannatnishon.  
Qani dahr sultoni *Chingizxon*,  
Qani shohi olam *Temur Ko‘ragon*.

Pretsedent nomlarning etalon vazifasida kelishi yana bir muhim vazifalaridan sanaladi. Pretsedent nomlar ma’lum bir lingvomadaniyatda biror bir tushunchaning ramzi sifatida ishlatiladi. Asarning turli o‘rinlarida *Luqmoni Hakim, Masih, Nuh, Sulaymon, Rustam, Semurg‘, Xizr, Anushirvon* kabi an’anaviy ramziy nomlarni qo‘llash bilan bir qatorda, *Jaloliddin, Chingizxon, Iqlima, Bahrom, Sheruya* kabilarni ham muayyan tushunchaning ramzi sifatida qabul qilish o‘zbek lingvomadaniyatiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biriga aylandi: *Jaloliddin* – vatanparvar, *Sheruya* – adolatsiz hukmdor va o‘z otasining qotili, *Chingizxon* – mo‘g‘ul imperiyasi asoschisi ramzi sifatida qo‘llanmoqda. Pretsedent nomlarning etalonlik xususiyati nazmiy o‘rinlarda ham ko‘zga tashlanadi: *Eram* – go‘zal va bohavo maskan etaloni bo‘lib, asarda o‘n yetti marta ishlatilgan:

Xo‘tan xushbo‘y mushki mujmaridin,  
*Eram* diljo‘y zeb-u zevaridin. (336).

*Hotam* – karam va saxovat etaloni bo‘lib, o‘n to‘qqiz o‘rinda qo‘llanilgan:

Urush maydonida *Rustam*dek erdi,  
Berish ayvonida *Hotam*dek erdi. (175)

*No‘shiravon* – adolat etaloni bo‘lib, o‘n to‘qqiz o‘rinda qo‘llanilgan:

Adolat saririda *No‘shiravon*,  
Shijoatda *Bahromi* charx oshiyon (66)

<sup>71</sup> Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Филол. фанл. док-ри дисс... – Тошкент, 2022. – Б. 135.

Yuqorida keltirilgan misolda *No‘shiravon* etalonidan tashqari, yana *Sikandar*, *Bahrom*, *Faridun*, *Doro* kabi pretsedent birliklar ham kuzatiladi, voqealar bayoni orqali *Bahrom* – shijoat, *Faridun* – adolat bilan davlat boshqargan, *Iskandar* – buyuk sarkarda kabi etalonlardir. Umuman, tarixiy asarlarda uchrovchi pretsedent nomlarni tadqiq etish orqali xalqimiz tarixi, milliy tafakkuri, madaniyati, urf-odatlarini bilan aloqador jihatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirishda milliy-madaniy jihatdan fazo, koinot bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi so‘z (yoki so‘zlar, so‘z birikmasi) tayanch qism bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik fazo lingvomadaniy kodi<sup>72</sup> deb yuritiladi. O‘zbek lingvomadaniyatida *Quyosh* yorug‘lik, ezgulik sifatida qaraladi. Olamni yoritishi bilan qalblarni yoritish ramzi sifatida ham quyosh lingvomadaniy kodi ishlatiladi:

Jamoliddin abu jad ko‘zlarin qilmoq uchun ravshan,  
*Quyosh*dek olamoro va qamardek muhtaram tug‘g‘ay. (204)

Yana bir o‘rinlarda inson tole‘yi baland bo‘lishida yoki davlat boshqaruvida quyoshdek jahon mulkini yoritishi, butun xalqqa marhamat qilishi lozimligi kabi mazmun ifodalash uchun ham ishlatiladi:

Chu G‘oyibxon *quyosh*dek bo‘ldi tole,  
Mahi a‘mor xasmin qildi g‘orib. (163)

*Quyosh, oftob fazo* lingvomadaniy kodi vositasida insonning ilm yo‘lida, saxovatda, haqiqatparvarlikda quyoshdek, oftobdek osmonni yorug‘ tutishiga ishora qilingan: ... *husn behishtida qudrat bila oroyish topg‘an va oftobe erdi malohat osmonida kamoli irtifo‘g‘a yetkan, aning aqdi nikohig‘a kiyurdi.* (83)

Tarixiy asarlarda xalqimiz o‘tmishi, ota-bobolarimizning kechinmalari, tasavvurlari o‘z in‘ikosini topgan. Ularda ifodalangan ramzlarni tadqiq etish bilan birga, to‘g‘ri talqin qilish ajdodlarimiz ichki dunyosini ochib berishga, ma‘naviyatimizni boyitishga xizmat qiladi. Onomalar ham o‘zi tegishli xalqning ijtimoiy-madaniy, madaniy-tarixiy jihatlarini o‘zida yaqqol namoyon eta oladi.

## XULOSA

1. Har qanday tarixiy onomastika aks etgan asar bugungi onomastik ko‘lamni to‘la tasavvur qilish va avlodlarga yetkazish uchun xizmat qilish barobarida nomlar taraqqiyoti qonuniyatlari yechimida muhim ahamiyatga ega.

2. Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari boshqa asarlarga nisbatan uzoq davr tarixini o‘z ichiga olgan yirik asar bo‘lib onomastik ko‘lami keng. Undagi turkiy, arabiy, eroniy qatlamga oid antroponim, toponim, kosmonim, gidronim kabi atoqli ot turlarini tahlilga tortish orqali asar yaratilgan davr onomastikasi haqida muayyan ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

3. Asardagi onomastik birliklarning funksional-stilistik hamda lingvokulturologik xususiyatlari, o‘ziga xosligi onomastik ko‘lamining kengligi kabilar mualliflarning o‘ziga xos uslubi, tarixnavislik mahorati kabi omillarning o‘rni kattaligini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>72</sup> Худойберганава Д. Антропоцентрик тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2022, 31-32-б.

4. “Firdavs ul-iqbol”dagi turkiy qatlamga mansub atoqli otlarda turkiy xalqlar madaniyati, milliy mentalitet, ijtimoiy yashash tarzidan kelib chiqqan holda nom berilish an’anasini kuzatish mumkin. Turkiy va eroniy (xususan, fors, tojik) tillarining bir-birlariga samarali ta’sirini ko’rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi. Asardagi turkiy qatlamga mansub atoqli otlarning aksariyati etimologik jihatdan qadimgi turkiy asoslardan tashkil topgan.

5. Turkiy xalqlar istiqomat qiladigan hududlarda eroniy qatlamga mansub onomastik birliklarning salmog’i katta. Bu esa o’lkadagi etnik va etnosiyosiy jarayonlarni yoritish, turk-eron etnomadaniy jarayonlarni tadqiq qilish uchun ham muhim manba bo’la olishiga dalildir.

6. Asardagi atoqli otlar arab lug’aviy qatlamiga mansubdir, asarda o’z aksini topgan. “Firdavs ul-iqbol”da atoqli otlar doirasidagi ba’zi arabiy so’zlar asl turkiy so’zlarga sinonim vazifasini bajaradi. O’zlashma so’zlarga mansub ayrim antroponimlar islom dini, uning aqida va e’tiqodiy jihatlari bilan bevosita bog’liq bo’lib, ularda diniy mazmun ustunlik qiladi.

7. “Firdavs ul-iqbol” asarida onomastik material juda ko’p bo’lib, ular bayon qilinayotgan voqealar rivoji, mualliflarning o’ziga xos uslubi, tarixiy jarayonga adabiy tus berishdek bir qancha omillar bilan bog’liq holatda qo’llanilgan. Ayniqsa, asar antroponomikasi o’sha davr tarixining yaqqol namunasi bo’lib, manbadagi antroponimlar qanday obyektни anglatishiga ko’ra bir qancha turlarga tasniflanadi.

8. “Firdavs ul iqbol” asaridagi ming yillik tarixga ega toponimlarni tadqiq qilish orqali ularni faqat tarix namunasi sifatida emas, balki milliy an’ana va qadriyatlarimiz hamda bugungi kunning ham asosiy joy nomlari ekanligini yosh avlod ongiga singdirish mumkin.

9. “Firdavs ul-iqbol”dagi onomastik birliklar ishtirok etgan jumalarning funksional-stilistik tahlili asarda bayon qilingan tarixiy voqelikni to’g’ri anglash, asarning uslubiy xususiyatlarni o’rganishda g’oyat ahamiyatlidir.

10. Asar onomastikasining shakllanishida Munis va Ogahiy larning o’ziga xos uslubi, tarixnavislik mahorati hamda ijtimoiy mavqei singari omillar kattaligini ko’rsatishda tadqiq obyekti bo’lgan asar muhim manba bo’la oladi.

11. Asar onomastik birliklarining pretsedent nom sifatida allyuziv nom, intertekstuallik, o’xshatish etaloni, madaniy kod kabi xususiyatlari uning onomastik ko’lamining kengligi va rang-barangligini ta’minlagan. O’rta asrlarda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan manbalar tili bilan asar tilini qiyosiy o’rganish asnosida ham yuqoridagi fikrlarimiz o’z tasdig’ini topishiga ishonchimiz komil.

12. Tarixiy onomastikaning dolzarb muammolaridan biri o’tmishda qo’llangan onomastik ko’lamni, ya’ni qadimiy fondni qayta tiklashdir. Xususan, asarda qo’llangan atoqli otlarning unutilib borayotgan turkiy tillarga oidlarini to’plab, tahlil qilish lozim. Asarda uchrovchi ko’pgina atoqli otlar barcha turkiy tillarda bir xilda saqlanmagan, mavjudlari esa lisoniy shakliga ko’ra o’ziga xos jihatlarga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РНД.03/30.12.2019.FIL.55.02  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ  
АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

---

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ  
РАЙХАНА БЕРУНИ**

**БАЙМУРАТОВА ХОСИЯТ АТАБАЕВНА**

**ОНОМАСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ МУНИСА И АГАХИ «ФИРДАВС  
УЛЬ-ИКБАЛ»**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РНД) ПО  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ургенч – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2023.4.PhD/Fil4027.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Примов Азамат Искандарович</b> доктор филологический наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Курбаниязов Гулмирза Алламберганиевич</b> доктор филологический наук, профессор <b>Махмудов Рауфжон Баходирович</b> доктор филологический наук, старший научный сотрудник
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Каракалпакский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится «11» сентябрь 2025 г. в 09:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 по присуждению ученой степени при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхан Беруни. Адрес: (220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом №14). Тел: (99862) 224-67-00; факс: (99862)224-67-00; e-mail: [fil-ik@urdu.uz](mailto:fil-ik@urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчском государственном университете имени Абу Райхан Беруни. (зарегистрирована за № 2-633). (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом №14. Тел.: (99862) 224-67-00). e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Автореферат диссертации разослан «13» август 2025 г.  
(Протокол реестра рассылки № 56 от «13» август 2025 г.)



*[Signature]*  
**Д.К. Гаипов**  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

*[Signature]*  
**С.С. Атажанов**  
Член-секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор фил.н. по филологии (PhD)

*[Signature]*  
**А.Д. Уразбаева**  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению, доктор филологических наук, профессор

## ВЕДЕНИЕ

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Опыт в мировой лингвистике показывает, что изучение памятников в каждом языке, являющихся научно-литературным наследием предков, включая и ономастику исторических произведений, в настоящее время приобретает особую актуальность для сохранения и передачи культурного наследия. Одной из важнейших задач лингвистической науки в этом процессе является компаративное изучение ономастического фонда письменных памятников, относящихся к различным этапам языковой эволюции с целью установления общих и дифференциальных признаков, репрезентирующих историко-культурный контекст.

В истории мирового языкознания все более возрастает роль лингвистического анализа текстов, оказавших существенное влияние на культуру и репрезентирующих исторический восточный колорит, а также источников, базирующихся на исследованиях классических историографов. Необходимость всестороннего изучения творческого наследия прошлых веков, оставившего неизгладимый след в культуре узбекского народа, и достойная оценка труда наших великих предков стало выноситься на повестку дня и в национальном языкознании. Привлечение к анализу, классификации с лингвистической точки зрения ономастической системы произведений поэтов, переводчиков, историков, плодотворно продолжавших традиции создания исторических произведений и восточный стиль, а также введение в научный оборот текстов произведений, могут послужить дальнейшему совершенствованию знаний об особенностях исторической лексикологии нашего языка.

В узбекском языкознании активно ведутся работы по изучению истории узбекского языка, являющегося неотъемлемой частью нашей духовности. Эти исследования включают лингвистический анализ исторических источников, с особым вниманием к ономастическому материалу. В частности, агахиведами начинается глубокое изучение с лингвистической точки зрения творческого наследия талантливого поэта, великого историка, талантливого переводчика, яркого представителя литературной среды Хорезма Мухаммада Реза Агахи. Произведение Шермухаммада Муниса и Агахи «Фирдавс уль-Икбал» считается своеобразной жемчужиной вышеуказанного духовного богатства. Общечеловеческие идеи в произведении имеют особое значение в воспитании, в формировании духовных воззрений нынешнего поколения. Кроме того, изучение произведения с филологической точки зрения обогатит узбекское языкознание новой научной информацией и результатами. С этой точки зрения становится ясно, что исследование данной темы чрезвычайно актуально. Опубликованность работы в текущем орфографическом издании, и выявление в ней большого количества имен собственных, предопределили необходимость проведения этого научного исследования.

Содержание Указа нашего Президента Ш.М. Мирзиеева “О мерах по

кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка” от 21 октября 2019 года послужило основой для дальнейшего расширения научных исследований системы имен собственных узбекского языка с точки зрения требования времени<sup>73</sup>. Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 г., в №УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 г., в №УП-5850 “О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка” от 21 октября 2019 года, в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-2789 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности” от 17 февраля 2017 г., в №ПП-2995 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников” от 24 мая 2017 г., в №ПП-4479 “О широком праздновании тридцатилетия принятия Закона Республики Узбекистан «О государственном языке»” от 4 октября 2019 г. и других нормативно-правовых актах в этой сфере.

**Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий в республике.** Исследование выполнено в рамках приоритетного I направления развития науки и технологий «Формирование информированного общества и системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития демократического государства и путей их реализации».

**Степень изученности проблемы.** Появилось множество монографий по накоплению и исследованию ономастических единиц, выполнены докторские, кандидатские работы. В формировании узбекской ономастики как дисциплины велики заслуги таких ученых, как Е.Бегматов<sup>74</sup>, З.Дусимов<sup>75</sup>, Т.Нафасов<sup>76</sup>, С.Кораев<sup>77</sup>, Н.Охунов<sup>78</sup>, Н.Улуков<sup>79</sup>, Н.Хусанов<sup>80</sup>, Ш.Якубов<sup>81</sup>, Х.Сатторов, М.Турдибеков<sup>82</sup>, Й.Хужамбердиев, Т.Ерназаров, М.Тиллаева<sup>83</sup>,

<sup>73</sup> Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5850 “О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка” от 21 октября 2019 года, <https://lex.uz/docs/-4561730>

